



## Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-may)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalarini tomonidan 5462,3 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 103,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 86,2 % ni tashkil etdi.



### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 5,0 % ga a hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 13,1 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 56,9 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 11,5 % ga pasayish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,6 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ohak tosh qazib olish - 80,6 % ga chaqiq tosh - 6,6 % ga, qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid - 13,1 % ga oshgan bo'lsa, tabiiy qum - 0,9 % ga gaz kondensati - 6,7 % ga hamda tabiiy gaz qazib olish 6,0 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Ohak tosh , ming t.	74,3	134,1	59,8
Tabiiy qum, ming t.	234,4	232,3	-2,1
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1224,8	1151,2	-73,6
Gaz kondensati, ming t.	49,7	46,4	-3,3
Chaqiq tosh, ming t.	138,1	147,2	9,1
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid, ming t.	47,7	53,9	6,2

### Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4706,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,2 % ini tashkil etdi.





## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2019- yil yanvar-may oylarida - 1,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 64,7 % (67,1 %), o'rta-quyi texnologiyali - 4,1 % (4,0 %) va quyi texnologiyalisi - 30,4 % (27,6 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 55,6 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 109,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 13,9 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 11,3 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,3 %)ni, boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,8 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,6 %)ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 122,2 ming tonna portlandsement (2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 191,4 % ga o'sgan), 4,3 ming tonna tozalangan gurich (55,1 %) 39,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (16,8 %) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	24,9	20,8	-4,1
Aroq, ming liter 100 % li spirit	1620,3	1248,4	-371,9
Paxtadan yigirligan ip, t.	2936	4404	1468
Polietulen, ming t.	152,5	152,4	-0,1
Polipropilen, ming t.	39,4	41,7	2,3

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 677,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,4 %)ini tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 13,1 % ga oshganligi kuzatildi.

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
<b>Elektroenergiya, mln. kVt/s</b>	1600,1	1745,5	145,4
<b>Issiqlik energiyasi, ming gkal</b>	26,0	18,4	-7,6
<b>Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm</b>	36152,1	41565,3	5413,2



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %)ini tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	1697,9	2378,3	680,4
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	5897,2	5555,9	-341,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	12974,3	14983,3	200,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 40,1 % ga suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar -15,5 % ga oshganligi hamda xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar - 5,8 % ga kamayganligi kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 904,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 16,6 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-may oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,0 % dan 68,6 % gacha oshganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,2 % (2019- yil yanvar-may oylarida 7,0 %)ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,6 % ni, shuningdek, Xo'jayli tumani 10,4 % ni, To'rtko'l tumani 8,9 % ni, Beruniy tumani 7,9 % ni Qonliko'l tumani 6,9 % ni, Qo'ng'iroq hamda Chimboy tumanlari 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (105,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chimboy (143,7 %), Mo'ynoq (139,4 %), Taxtako'pir (116,5 %), Qonliko'l (112,5 %), Ellikqal'a (112,0 %) hamda Nukus tumanlarida (108,3 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-may oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>904,1</b>	<b>100</b>	<b>105,3</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>51,0</b>	<b>5,6</b>	<b>100,4</b>
<b>Beruniy</b>	<b>71,8</b>	<b>7,9</b>	<b>100,0</b>
<b>Bo`zatov</b>	<b>3,2</b>	<b>0,3</b>	<b>100,4</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>62,1</b>	<b>6,9</b>	<b>112,5</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>17,0</b>	<b>1,9</b>	<b>100,0</b>
<b>Kegayli</b>	<b>18,0</b>	<b>2,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>54,2</b>	<b>6,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>17,0</b>	<b>1,9</b>	<b>139,4</b>
<b>Nukus</b>	<b>16,0</b>	<b>1,8</b>	<b>108,3</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>48,5</b>	<b>5,4</b>	<b>101,4</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>42,1</b>	<b>4,7</b>	<b>116,5</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>80,6</b>	<b>8,9</b>	<b>101,4</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>94,5</b>	<b>10,4</b>	<b>100,1</b>
<b>Chimboy</b>	<b>54,5</b>	<b>6,0</b>	<b>143,7</b>
<b>Shumanay</b>	<b>17,1</b>	<b>1,9</b>	<b>101,1</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>70,3</b>	<b>7,8</b>	<b>112,0</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>186,2</b>	<b>20,6</b>	<b>100,0</b>

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,8 %, shuningdek, Xo'jayli tumani 9,2 % ni va To'rtko'l tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Taxiatosh (192,8 %), Ellikqal'a (169,5 %), Mo'ynoq (161,1 %), Chimboy (137,3 %), Qonliko'l (129,7 %) va Taxtako'pir (122,0%) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-may oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>620,1</b>	<b>100</b>	<b>112,8</b>
Amudaryo	33,4	5,4	101,2
Beruniy	41,0	6,6	96,3
Bo`zatov	2,3	0,4	100,4
Qonliko'l	50,6	8,2	129,7
Qorao'zak	10,2	1,6	98,8
Kegayli	11,7	1,9	97,8
Qo'ng'irot	37,6	6,1	100,7
Mo'ynoq	10,5	1,7	161,1
Nukus	9,5	1,5	108,2
Taxiatosh	34,9	5,6	192,8
Taxtako'pir	34,2	5,5	122,0
To'rtko'l	56,6	9,1	113,6
Xo'jayli	56,7	9,2	104,4
Chimboy	35,6	5,7	137,3
Shumanay	11,2	1,8	99,3
Ellikqal'a	55,0	8,9	169,5
Nukus sh.	129,1	20,8	93,5

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,1 %, shuningdek, Xo'jayli 13,3 % ni, Beruniy tumani 10,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (91,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chimboy (157,7 %), Mo'ynoq (114,4 %), Nukus (108,4 %) tumanlarida hamda Nukus (118,7 %) shahrida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-may oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>284,0</b>	<b>100,0</b>	<b>91,9</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>17,6</b>	<b>6,2</b>	<b>99,0</b>
<b>Beruniy</b>	<b>30,8</b>	<b>10,9</b>	<b>105,4</b>
<b>Bo`zatov</b>	<b>0,9</b>	<b>0,3</b>	<b>100,3</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>11,5</b>	<b>4,0</b>	<b>71,1</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>6,8</b>	<b>2,4</b>	<b>101,9</b>
<b>Kegayli</b>	<b>6,3</b>	<b>2,2</b>	<b>104,5</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>16,6</b>	<b>5,8</b>	<b>98,4</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>6,5</b>	<b>2,3</b>	<b>114,4</b>
<b>Nukus</b>	<b>6,5</b>	<b>2,3</b>	<b>108,4</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>13,6</b>	<b>4,8</b>	<b>45,8</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>7,9</b>	<b>2,8</b>	<b>97,3</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>24,0</b>	<b>8,5</b>	<b>80,9</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>37,8</b>	<b>13,3</b>	<b>94,3</b>
<b>Chimboy</b>	<b>18,9</b>	<b>6,6</b>	<b>157,7</b>
<b>Shumanay</b>	<b>5,9</b>	<b>2,1</b>	<b>104,6</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>15,3</b>	<b>5,4</b>	<b>50,5</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>57,1</b>	<b>20,1</b>	<b>118,7</b>

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3096,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 56,7 % ni tashkil etdi.



**Qoraqalpo'giston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2020- yil yanvar-may mlrd. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Qoraqalpo'giston Respublikasi</b>	<b>5462,3</b>	<b>103,5</b>
<b>Amudaryo</b>	161,6	91,8
<b>Beruniy</b>	108,5	86,2
<b>Bo`zatov</b>	46,1	104,2
<b>Qonliko'l</b>	129,7	112,7
<b>Qorao'zak</b>	99,3	122,8
<b>Kegayli</b>	121,4	100,7
<b>Qo'ng'irot</b>	111,1	102,3
<b>Mo'ynoq</b>	45,1	109,9
<b>Nukus</b>	106,4	110,8
<b>Taxiatosh</b>	615,6	116,1
<b>Taxtako'pir</b>	66,3	105,3
<b>To'rtko'l</b>	143,7	107,1
<b>Xo'jayli</b>	207,3	101,1
<b>Chimboy</b>	70,3	102,3
<b>Shumanay</b>	52,3	125,1
<b>Ellikqal'a</b>	114,8	100,1
<b>Nukus sh.</b>	3262,8	100,9


## Qoraqalpo'giston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 59,7 %), Taxiatosh (11,3 %) hamda Xo'jayli (3,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bo'zatov hamda Mo'ynoq (0,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Shumanay (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 125,1 %), Qorao'zak (122,8 %), Taxiatosh (116,1 %), Qonliko'l (112,7 %) hamda Nukus (110,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



## Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Chimboy (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 143,7 %), Mo'ynoq (139,4 %), Taxtako'pir (116,5 %), Qonliko'l (112,5), Ellikqal'a (112,0 %), Nukus (108,3 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (10186,5 ming so'm), Taxiatosh (8330,6 ming so'm) tumanida o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasi ko'rsatkichidan (2873,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 475,6 ming so'm bo'lgani holda, Nukus shahrida - 581,4 ming so'mni, Qonliko'l tumanida - 1217,3 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida - 1049,2 ming so'mni, Xo'jayli tumanida - 769,5 ming so'mni, Taxiatosh tumanida - 656,6 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar-may oylarida, ming so'm)**

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2873,2</b>	<b>475,6</b>
<b>Amudaryo</b>	810,1	255,6
<b>Beruniy</b>	566,0	374,6
<b>Bo`zatov</b>	2136,1	146,9
<b>Qonliko'l</b>	2543,9	1217,3
<b>Qorao'zak</b>	1880,6	322,5
<b>Kegayli</b>	1674,1	248,2
<b>Qo'ng'irot</b>	853,8	416,3
<b>Mo'ynoq</b>	1413,5	533,8
<b>Nukus</b>	2115,4	317,7
<b>Taxiatosh</b>	8330,6	656,6
<b>Taxtako'pir</b>	1654,4	1049,2
<b>To'rtno'l</b>	669,6	375,6
<b>Xo'jayli</b>	1687,7	769,5
<b>Chimboy</b>	625,2	484,6
<b>Shumanay</b>	930,2	304,5
<b>Ellikqal'a</b>	720,3	441,4
<b>Nukus sh.</b>	10186,5	581,4

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
(2020- yil yanvar-may oylarida, % da)**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1002,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,4 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mo'ynoq, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Beruniy tumanida (80,7 %), Qo'ng'irot tumanida (60,3 %), Chimboy tumanida (52,8 %) kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nukus shahar (6,8 %), Taxiatosh (9,5 %), Bo'zatov (9,9 %) va Kegeyli (11,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Qoraqalpog'iston Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda respublikada 2427 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1019 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 42,0 %) Nukus shahriga 513 tasi (21,2 %), To'rtko'l tumaniga 270 tasi (11,1 %), Beruniy tumaniga 236 tasi (9,7 %) to'gri kelmoqda.



2020- yil yanvar-may oyida respublikada 260 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 131 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 50,4 %) Nukus shahrida 45 tasi (17,3 %), To'rtko'l tumanida 31 tasi (11,9 %), Amudaryo tumanida 28 tasi (10,8 %) hamda 27 tasi (10,4 %) Ellikqal'a tumanida tashkil etildi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasi sanoat  
statistikas bo'limi Tel.: (61) 222-75-87**